


## 2020- yil yanvar-iyul oylari uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Samarqand viloyatida jami 3250,4 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 104,5 % ni tashkil etdi.




### 2020- yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**2020– yil yanvar–iyul oylarida mulkchilik shakillari bo'yicha qurilish ishlari**



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**

2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2,9 mingtani tashkil etib, o'tgan 2019- yilning mos davriga nisbatan 378 taga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda qurilish ishlari hajmining o'tgan yilga nisbatan **29,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **74,4 %**) oshganligi hisobidandir.




**Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.08.2019- yil	01.08.2020- yil	
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2543</b>	<b>2932</b>	<b>115,3</b>
Samarqand sh.	909	1034	113,8
Kattaqo'rg'on sh.	69	105	152,2
tumanlar:			
Oqdaryo	114	129	113,2
Bulung'ur	49	68	138,8
Jomboy	90	114	126,7
Ishtixon	123	146	118,7
Kattaqo'rg'on	98	115	117,3
Qo'shrabot	61	63	103,3
Narpay	67	84	125,4
Payariq	201	222	110,4
Pastdarg'om	267	287	107,5
Paxtachi	52	60	115,4
Samarqand	98	123	125,5
Nurobod	45	41	91,1
Urgut	184	209	113,6
Toyloq	116	132	113,8



**Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni ulushi (%da)  
01.08.2020- yil holatiga**



**Ma'lumot uchun:** Samarqand viloyatida soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Samarqand sh. (35,7 %), Pastdarg'om (10,5 %) va Payariq (7,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **353,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **8,6** marta ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **9,5** % punktga ko'paygan.




### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Samarqand shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **53,8** % yoki 2019- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **5,9** marta ko'p), Kattaqo'rg'on shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **1,3** % ), Toyloq (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **21,1** % ), Pstdarg'om (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **20,2** % ), Samarqand (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **3,0** % ) va Oqdaryo (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **0,6** % ) tumanlarga to'g'ri keldi.



**Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da**



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**

- 2020- yil yanvar-iyul
- 2019- yil yanvar-iyul

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan kamayganligi kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **63,9 %** bajarilib, 2019- yilning yanvar-iyul oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1,1 %** punktga kamaygan.


Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **102,3 %** ni tashkil etgan holda **2076,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **25,3 %** ni tashkil etib **821,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019 - yilning yanvar - iyul oylariga nisbatan **79,2 %** ni tashkil etdi.*



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **108,6** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **36,7** % ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3141,8** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **141,6** % ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **3,3** % va **96,7** % ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk

2020- yil  
yanvar-iyul

Samarqand viloyatida qurilish ishlari

7



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2020- yil yanvar-iyul

66,7 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **66,7 %** yoki **2169,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

14,8 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **319,9** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **14,8 %** ni tashkil etdi.

49,3%

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1069,9** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **49,3 %** ni tashkil etdi.

35,9%

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **779,2** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **35,9 %** ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-iyul oylarida**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)</b>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>3250,4</b>	<b>104,5</b>	<b>2169,0</b>
Samarqand sh.	1151,5	110,2	830,7
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	61,4	107,9	46,1
Oqdaryo	264,4	104,8	180,7
Bulung'ur	72,2	94,6	49,7
Jomboy	159,4	102,8	109,1
Ishtixon	161,5	102,0	108,6
Kattaqo'rg'on	108,7	106,1	73,7
Qo'shrabot	84,1	99,8	57,4
Narpay	107,3	97,2	73,1
Payariq	181,5	86,2	12,6
Pastdarg'om	231,0	122,2	154
Paxtachi	114,0	88,3	82,4
Samarqand	119,3	82,0	80,3
Nurobod	72,7	108,5	49,9
Urgut	134,1	80,1	92,4
Toyloq	227,3	141,6	168,3

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



## Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2019- yil yanvar-iyul

12,1



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

13,7



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

74,2



Bino va inshootlarni  
qurish

2020- yil yanvar-iyul

7,4



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

18,2



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

74,4



Bino va inshootlarni  
qurish

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **6,5 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,8 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **11,3 %** punktga ko'payib, **59,6 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **17,1 %** punktga kamayib, **33,9 %** ni tashkil etdi.






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **32,1 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **26,5 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **67,3 %** (**13,1 %** punktga ko'payish), hamda norasmiy sektorning ulushi **0,6 %** (**39,6 %** punktga kamayish)ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **2,0 %** ni tashkil etdi. Qolgan **98,0 %** ulush esa kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi.





## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-iyul oylarida

### Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Samarqand sh.  
1151,5


2

Toyloq  
227,3

1

Oqdaryo  
264,4

3



### Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

Kattaqo'rg'on sh.  
61,4

2

Nurobod  
72,7

1

Bulung'ur  
72,2

3





**Samarqand viloyati  
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

*Kontakt telefon: (66) 2304532*